



UDK: 502.3(575.1)

Tuxtamish AZIZOV,

"ISFT" instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, "Gumanitar va tabiiy fanlar" kafedrası professori v.b.

Siyosiy fanlar doktori, professor N.Jo'rayev taqrizi asosida

ELIMINATION OF ENVIRONMENTAL EMERGENCIES: PUBLIC POLICY AND INSTITUTIONAL MECHANISMS

Annotation

This article examines the organizational-institutional and conceptual foundations of the state policy of the Republic of Uzbekistan in managing and mitigating the consequences of emergency environmental situations. The analysis covers the existing legal framework, interagency coordination systems, and monitoring mechanisms. The study also reviews international best practices and provides recommendations for their adaptation to Uzbekistan's context. The research outcomes offer important scientific and practical conclusions for enhancing the country's environmental security system.

Key words: Emergency environmental situations, environmental security, state policy, institutional mechanisms, monitoring system, international experience.

РЕАГИРОВАНИЕ НА ЧРЕЗВЫЧАЙНЫЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СИТУАЦИИ: ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ

Аннотация

В статье изучены организационно-институциональные и концептуальные основы государственной политики Республики Узбекистан по управлению и ликвидации последствий чрезвычайных экологических ситуаций. Проведен анализ действующей нормативно-правовой базы, межведомственного взаимодействия и механизмов мониторинга. Также исследован международный опыт и предложены рекомендации по его применению в условиях Узбекистана. Результаты исследования представляют собой важные научные и практические выводы для дальнейшего совершенствования системы экологической безопасности страны.

Ключевые слова: Чрезвычайные экологические ситуации, экологическая безопасность, государственная политика, институциональные механизмы, система мониторинга, международный опыт.

EKOLOGIK FAVQULODDA VAZIYATLARNI BARTARAF ETISH: DAVLAT SIYOSATI VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish va ularni bartaraf etish bo'yicha davlat siyosatining tashkiliy-institutsional va konseptual asoslari o'rganildi. Mavjud normativ-huquqiy baza, institutlararo muvofiqlashtirish tizimi va monitoring mexanizmlari tahlil qilindi. Shuningdek, xalqaro ilg'or tajribalar o'rganilib, O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda ekologik xavfsizlik tizimini yanada takomillashtirish uchun muhim ilmiy va amaliy xulosalarni beradi.

Kalit so'zlar: Favqulodda ekologik holatlar, ekologik xavfsizlik, davlat siyosati, institutsional mexanizmlar, monitoring tizimi, xalqaro tajriba.

Kirish. Bugungi kunda global miqyosda ekologik xavfsizlik va atrof-muhit muhofazasi masalalari insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy va sanoat rivojlanishining jadal sur'atlari, urbanizatsiya va texnogen faoliyatning kengayishi natijasida tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatib, ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, favqulodda ekologik vaziyatlarning yuzaga kelishi inson hayoti, sog'lig'i va iqtisodiyotga katta xavf tug'dirmoqda. Ushbu tahdidlar davlatchilik siyosati darajasida kompleks, tizimli va institutsional yondashuv asosida hal qilinishi lozim bo'lgan ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham ekologik xavfsizlikni ta'minlash, favqulodda ekologik vaziyatlarni barvaqt aniqlash, ularni oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha davlat siyosatining mustahkam huquqiy-me'yoriy bazasi shakllantirilgan. Jumladan, mamlakatda favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarishga oid bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va konseptual hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular davlat boshqaruv organlari, fuqarolik

jamiyati institutlari va aholi o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Biroq amaliyotda bu jarayonlarning samaradorligi, tashkiliy-institutsional mexanizmlarining natijadorligi va barqarorligi borasida muayyan kamchiliklar saqlanib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotning maqsadi – favqulodda ekologik vaziyatlarni barvaqt bartaraf etish va boshqarish bo'yicha davlat siyosatining tashkiliy-institutsional va konseptual asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, milliy tajribani xalqaro tajriba bilan solishtirish hamda mavjud tizimni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqotning asosiy vazifalari sifatida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarishning davlat siyosatidagi o'rnini aniqlash, amaldagi tashkiliy-institutsional tizimlarning afzallik va kamchiliklarini baholash, xalqaro tajribalarni tahlil qilish va ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini aniqlash belgilab olingan.

Ushbu tadqiqot obyekti sifatida favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha davlat siyosatining tashkiliy-institutsional tizimi, predmeti esa ushbu tizimning samaradorligini oshirish yo'llari va mexanizmlari etib

belgilanadi. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, xorijiy tajribalarni o'rganish, ekspert suhbatlari va tizimli tahlil metodlari qo'llanildi.

Metodologiya. Tadqiqotda favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish va bartaraf etishning tashkiliy-institutsional va konseptual asoslarini o'rganish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Avvalo, mavzuga oid milliy va xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, strategiyalar va konseptual hujjatlar chuqur o'rganildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Favqulodda holat to'g'risida"gi qonunlari, Prezident qarorlari va Vazirlar Mahkaması qarorlari tahlil qilindi. Shuningdek, favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarishda faoliyat yurituvchi davlat va nodavlat tashkilotlarining tashkiliy tuzilmalari, ularning funksiyalari va o'zaro hamkorlik mexanizmlari o'rganildi.

Tadqiqot metodologik jihatdan tizimli yondashuv, huquqiy-tahliliy, institutsional tahlil, komparativ (taqqoslash) tahlil, SWOT-tahlil va ekspert intervyu metodlaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv asosida ekologik xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar, davlat siyosatining samaradorligini ta'minlovchi tashkiliy-institutsional tuzilmalar va ularning funksional aloqalari o'rganildi. Huquqiy-tahliliy metod orqali milliy normativ-huquqiy hujjatlar chuqur tahlil qilinib, ularning amaldagi samaradorligi, ziddiyatli jihatlar va bo'shliqlari aniqlab berildi. Komparativ tahlil asosida AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarning ekologik favqulodda vaziyatlarni boshqarishdagi ilg'or tajribalari tahlil qilinib, ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari baholandi.

Bundan tashqari, SWOT-tahlil usuli orqali O'zbekiston Respublikasida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish tizimining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari aniqlab berildi. Ekspert intervyular orqali soha mutaxassislari, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida faoliyat yurituvchi idora vakillari va mustaqil ekspertlarning fikrlari, amaliy tajribalari yig'ib o'rganildi. Shuningdek, ilmiy maqolalar, monografiyalar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, ekologik xavfsizlik bo'yicha amaliyotchi mutaxassislarning materiallari tahlil jarayonida asosiy ma'lumotlar manbai sifatida xizmat qildi. Barcha ma'lumotlar tahliliy sintez asosida birlashtirilib, ilmiy asoslangan xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijalar. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish va bartaraf etishga doir davlat siyosati va uning tashkiliy-institutsional tizimi chuqur o'rganildi va bir qator muhim natijalar aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mamlakatda favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish bo'yicha huquqiy-me'yoriy baza yetarlicha shakllangan bo'lsa-da, ushbu tizimning amaldagi ishlash samaradorligi, davlat organlari o'rtasidagi muvofiqlashtirish darajasi va fuqarolik jamiyati institutlari ishtiroki past darajada qolmoqda. Xususan, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda favqulodda ekologik holatlar oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan maxsus institutlar va ularning vakolatlari aniq belgilangan bo'lsa-da, ularning o'zaro hamkorlik algoritmlari va resurslar bilan ta'minlanganligi yetarlicha to'liq emasligi aniqlangan.

SWOT-tahlil natijalari O'zbekiston tajribasida kuchli tomon sifatida davlat tomonidan ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida huquqiy va institutsional mexanizmlarning mavjudligi, sohada qabul qilingan strategiyalar va konseptual hujjatlarning mavjudligi, xalqaro ekologik tashabbuslarda ishtirok etilishi qayd etildi. Shu bilan birga, zaif tomonlar qatoriga sohada monitoring va nazorat mexanizmlarining samaradorligi pastligi, ma'lumotlarning tezkorligi va ishonchiligi past darajada ekanligi, ekologik tahdidlarni baholashda zamonaviy texnologiyalarning cheklangan qo'llanilishi kiritildi. Imkoniyatlar sifatida esa

xalqaro tajribalarni o'rganish va integratsiya qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xususiy sektor, fuqarolik jamiyati va jamoatchilikni keng jalb etish ehtimoli aniqlandi. Tahdidlar esa global ekologik muammolarning keskinlashuvi, iqlim o'zgarishlari, texnogen avariylar va tabiiy ofatlar xavfini oshirishi bilan izohlandi.

Xalqaro tajriba tahlillari asosida AQSh, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarishning samarali mexanizmlari ishlab chiqilgani, ularning kuchli institutsional bazaga, yuqori malakali kadrlarga, real vaqt rejimida ishlovchi monitoring tizimlariga, aholi va biznes tuzilmalarini faol jalb etuvchi mexanizmlarga ega ekanini aniqlangan. Ushbu ilg'or tajribalardan kelib chiqib, O'zbekiston sharoitida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi: milliy ekologik xavfsizlik strategiyasini qabul qilish, davlat va jamiyat o'rtasida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarishda shaffoflik va axborot almashinuvi mexanizmlarini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellekt asosida monitoring tizimlarini joriy etish, favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish bo'yicha maxsus tayyorlov dasturlari orqali kadrlar salohiyatini oshirish.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish va ularni bartaraf etish bo'yicha davlat siyosatining tashkiliy-institutsional va konseptual asoslari mavjud bo'lsa-da, amaldagi tizimda bir qator tizimli muammolar va cheklovlar mavjud. Xususan, mavjud normativ-huquqiy baza yetarlicha keng qamrovli bo'lsa-da, ularni amaliyotga joriy etish, davlat organlari o'rtasida aniq vakolat taqsimoti va muvofiqlashtirish mexanizmlarining samaradorligi past darajada qolmoqda. Xalqaro ilg'or tajribalar tahlili esa, favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarishda institutlararo hamkorlik, real vaqt rejimida monitoring qilish tizimlari, fuqarolar va biznes tuzilmalarning faol ishtiroki hamda shaffoflik mexanizmlarining yuqori samara berishini ko'rsatmoqda.

Shu asosda O'zbekiston sharoitida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi amaliy va konseptual tavsiyalar ishlab chiqildi: birinchidan, milliy darajada "Ekologik xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarni boshqarish to'g'risida" maxsus konsepsiya va davlat strategiyasini qabul qilish zarur. Ushbu hujjatlar orqali davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, axborot almashinuvi va shaffoflik mexanizmlarini kuchaytirish, xalqaro standartlarga mos monitoring va baholash tizimlarini joriy etish lozim. Ikkinchidan, favqulodda ekologik holatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etuvchi barcha tashkilotlar uchun yagona favqulodda vaziyatlarni boshqarish markazini tashkil etish, uning tarkibiga tegishli idoralar, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektor vakillarini jalb qilish orqali boshqaruvda ko'p tomonlama ishtirokni ta'minlash tavsiya etiladi. Uchinchidan, zamonaviy texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt, "aqlli" monitoring tizimlari, dronlar va raqamli platformalar yordamida favqulodda ekologik vaziyatlarni erta ogohlantirish va barvaqt aniqlash tizimlarini joriy etish zarur.

Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar shuni ko'rsatdiki, favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish masalalari davlat siyosatining barqaror va ustuvor yo'nalishi sifatida strategik darajada qayta ko'rib chiqilishi, mavjud tashkiliy-institutsional mexanizmlar esa xalqaro talablar va ilg'or tajribalar asosida yangilanishi lozim. Bu esa O'zbekiston Respublikasining ekologik xavfsizlikni ta'minlashda samaradorlikni oshiradi, aholi salomatligi, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy himoya tizimlarini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. FAO (2022). The State of the World's Forests 2022. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.
2. GEF (2023). Strengthening National Capacities for Disaster Risk Management and Climate Resilience. Global Environment Facility Annual Report. Washington D.C.
3. IPCC (2023). Climate Change 2023: Impacts, Adaptation and Vulnerability. Contribution of Working Group II to the Sixth Assessment Report. Geneva: Intergovernmental Panel on Climate Change.
4. Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan (2024). National Action Plan for Emergency Situations and Environmental Disasters. Tashkent: MoES Uz.
5. OECD (2022). Environmental Performance Reviews: Uzbekistan 2022. Paris: OECD Publishing.
6. UNEP (2023). Global Environment Outlook 7 (GEO-7). Nairobi: United Nations Environment Programme.
7. United Nations (2022). Sendai Framework for Disaster Risk Reduction 2015–2030: Progress Report 2022. New York: UN Office for Disaster Risk Reduction.
8. World Bank (2023). Building Resilient Societies: Best Practices in Disaster Risk Management and Environmental Governance. Washington D.C.: World Bank Group.
9. Xalqaro Qonunchilik Asoslari (2023). Xalqaro ekologik xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarni boshqarish sohasida asosiy huquqiy hujjatlar to'plami. Tashkent: Adolat Nashriyoti.
10. Yo'ldoshev, S. (2023). Favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari: O'zbekiston tajribasi va xalqaro standartlar. Tashkent: Fan va Taraqqiyot.